



UDK: 372.881.111.1:377

Movluda RAUFOVA,

Tayanch doktorant, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: raufovamovluda@gmail.com

Andijon davlat tibbiyot instituti professori, p.f.d A.Ismanova taqrizi asosida

INGLIZ TILINI O'QITISHDA KASB-HUNAR TEXNIKUMI O'QUVCHILARINING OG'ZAKI MULOQOT KO'NIKMALARINI KEYS TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Аннотация

Ushbu maqolada kasb-hunar texnikumi o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda og'zaki muloqot ko'nikmalarini keys texnologiyasi asosida rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Professional ta'lim oluvchilarning kundalik va kasbiy vaziyatlarda ingliz tilida fikr bildirish, savol berish, muammoni izohlash, hamkorlikda qaror qabul qilish va o'z nuqtayi nazarini dalillash ehtiyojidan kelib chiqib, keys topshiriqlarini loyihalash mezonlari aniqlashtirilgan. Metodika model diagnostik-motivatsion, leksiko-kommunikativ tayyorgarlik, vaziyatni tahlil qilish, rolli muloqot, yechimni taqdim etish hamda refleksiv baholash bosqichlarini qamrab oladi. Maqolada og'zaki muloqotni baholash uchun mazmuniy moslik, ravonlik, muloqotga kirishuvchanlik, kasbiy leksikadan foydalanish, grammatik aniqlik va talaffuz mezonlari taklif etilgan. Keys texnologiyasi ingliz tili mashg'ulotlarini kasbiy faoliyatga yaqinlashtirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va jamoada ishlashini faollashtirishga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, kasb-hunar texnikumi, og'zaki muloqot, keys texnologiyasi, kasbiy yo'naltirilgan ta'lim, kommunikativ kompetensiya, rolli muloqot, refleksiya.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ УСТНОГО ОБЩЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ТЕХНИКУМА ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ С ПОМОЩЬЮ КЕЙС-ТЕХНОЛОГИИ

Аннотация

В статье раскрыты теоретико-методические основы развития навыков устного общения учащихся профессионального техникума при обучении английскому языку на основе кейс-технологии. С учетом необходимости выражать мнение, задавать вопросы, объяснять проблему, совместно принимать решения и аргументировать позицию в повседневных и профессиональных ситуациях уточнены критерии проектирования кейсов. Предложенная методическая модель включает диагностико-мотивационный этап, лексико-коммуникативную подготовку, анализ ситуации, ролевое взаимодействие, презентацию решения и рефлексивное оценивание. Для оценки устного общения рекомендованы критерии содержательной адекватности, беглости речи, интерактивности, использования профессиональной лексики, грамматической точности и произношения. Обосновано, что кейс-технология приближает обучение английскому языку к будущей профессиональной деятельности, активизирует самостоятельное мышление и командное взаимодействие учащихся.

Ключевые слова: английский язык, профессиональный техникум, устное общение, кейс-технология, профессионально ориентированное обучение, коммуникативная компетенция, ролевое взаимодействие, рефлексия.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING ORAL COMMUNICATION SKILLS OF VOCATIONAL TECHNICAL SCHOOL STUDENTS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING THROUGH CASE TECHNOLOGY

Annotation

This article presents the theoretical and methodological foundations for developing vocational technical school students' oral communication skills in English through case technology. Based on learners' need to express opinions, ask questions, explain problems, make collaborative decisions and justify their positions in everyday and profession-related situations, criteria for designing educational cases are specified. The proposed model includes diagnostic and motivational preparation, lexical and communicative scaffolding, situation analysis, role-based interaction, presentation of solutions and reflective assessment. The article proposes assessment criteria for oral communication: content relevance, fluency, interaction, use of professional vocabulary, grammatical accuracy and pronunciation. It is argued that case technology brings English lessons closer to future workplace communication, increases students' active participation and supports independent thinking, teamwork and reflective learning.

Keywords: English language, vocational technical school, oral communication, case technology, English for specific purposes, communicative competence, role-based interaction, reflection.

Kirish. Bugungi professional ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish faqat grammatik qoidalarni o'zlashtirish yoki alohida so'zlarni yodlash bilan cheklanmaydi. Kasb-hunar texnikumi bitiruvchisidan ish jarayonida hamkasb, mijoz va hamkorlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qila olish talab etiladi. Shu sababli ingliz tili mashg'ulotlarining mazmuni o'quvchilarning kelajak kasbiy faoliyatida uchraydigan real kommunikativ vaziyatlarga yo'naltirilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida professional ta'lim bosqichlarida murakkablik darajasidan kelib chiqib kasb va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlanishi belgilangan [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorida xorijiy tillarni o'qitishni ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish hamda pedagoglarning zamonaviy o'qitish ko'nikmalarini shakllantirish vazifalari qo'yilgan [2]. Mazkur talablar

professional ta'limda ingliz tilini kasbiy vaziyatlar bilan integratsiyalashgan holda o'qitish zaruratini ko'rsatadi.

Yevropa Kengashining CEFR Companion Volume hujjatida til o'rganish jarayoni harakatga yo'naltirilgan yondashuv asosida talqin qilinadi. Bunda o'quvchi tayyor bilimni qayta aytuvchi emas, balki muayyan vaziyatda maqsadga erishish uchun til vositalaridan foydanuvchi ijtimoiy subyekt sifatida ko'riladi [3]. Og'zaki muloqot ko'nikmasi fikrni ifodalash, suhbatni boshlash, aniqlik kiritish, taklif bildirish hamda muammoli vaziyatga yechim taklif qilish kabi faoliyatlarni qamrab oladi.

Goh va Burns og'zaki nutqni o'qitishda til birliklarini mashq qilish, nutqiy strategiyalarni rivojlantirish hamda refleksiyaning bir tizimda tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi [4]. Newton va Nation esa tinglab tushunish va gapirishni rivojlantirishda mazmunli kirish materialini, til birliklarini anglash hamda ravonlikni oshirishga xizmat qiluvchi faoliyatlar muvozanatini ta'minlash lozimligini ko'rsatadi [5].

Keys texnologiyasi muammoli vaziyatni tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash, guruhda fikr almashish va asoslangan yechimni taqdim etishga yo'naltirilgan faol ta'lim texnologiyasidir. Keys o'quvchini muloqot qilishga majbur etuvchi va kasbiy kontekstda til vositalaridan maqsadli foydalanishga undovchi didaktik vaziyatdir. Sheredekina va hammualliflar kasbiy xorijiy muloqotni o'qitishda keys texnologiyasining imkoniyatlarini yoritib, u gapirish ko'nikmalarini muammoli professional vazifalarni hal qilish orqali rivojlantirishini ko'rsatgan [6].

Texnikum o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutqini rivojlantirishda muloqotga kirisha olmaslik va o'rganilgan mavzu bilan kelajak kasbi o'rtasidagi aloqani his qilmaslik muammolari uchraydi. Keys texnologiyasi mazkur muammolarni yumshatadi, chunki u o'quvchini tayyor javobni eslab qolishga emas, balki vaziyatni tushunish, hamkor bilan muloqot qilish va yechimni og'zaki asoslashga yo'naltiradi.

Jadval 1. Keys texnologiyasi asosida og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish modeli

Bosqich	Asosiy maqsad	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati	Kutiladigan natija
1. Diagnostik-motivatsion	Mavzuga kirish va nutqiy ehtiyojni anglash	Muammoli vaziyatni video, rasm yoki savol orqali taqdim etadi	Vaziyatni taxmin qiladi, mavjud tajribasini faollashtiradi	Muloqotga kirishish motivatsiyasi hosil bo'ladi
2. Leksik-kommunikativ	Zarur til birliklarini faollashtirish	Kasbiy so'zlar, savol qoliplari va foydali iboralarni beradi	Iboralarni juftlikda mashq qiladi, mini-dialoglar tuzadi	Keys muhokamasi uchun til tayanchi shakllanadi
3. Keysni tahlil qilish	Muammo va cheklovlarni aniqlash	Yo'naltiruvchi savollar beradi, rollarni taqsimlaydi	Axborotni saralaydi, muhim dalillarni ajratadi	Tanqidiy fikrlash va savol berish rivojlanadi
4. Rolli muloqot	Yechim variantlarini muhokama qilish	Muloqotni kuzatadi, zarur hollarda qisqa ko'mak beradi	Taklif bildiradi, rozi yoki noroziligini asoslaydi	Interaktiv gapirish va hamkorlik ko'nikmasi faollashadi
5. Yechimni taqdim etish	Guruh qarorini dalillash	Taqdimot mezonlarini eslatadi, savollar beradi	Yakuniy tavsiyani ingliz tilida taqdim etadi va himoya qiladi	Monologik nutq va kasbiy leksika mustahkamlanadi
6. Refleksiya va baholash	Natijani tahlil qilish va maqsad belgilash	Mezonli fikr-mulohaza beradi, o'zaro baholashni boshqaradi	O'z kuchli va zaif jihatlarini qayd etadi	Metakognitiv ko'nikma va o'z-o'zini boshqarish rivojlanadi

Keys mazmunini o'quvchilarning mutaxassisligiga moslashtirish metodikaning muhim shartidir. Masalan, xizmat ko'rsatishda "Mijozning shikoyatini hal qilish", IT yo'nalishida "Kompyuter tarmog'idagi uzilishni aniqlash", turizmida "Mehmon uchun muqobil sayohat rejasini taklif qilish" kabi vaziyatlardan foydalaniladi. Keys mazmuni kasbiy jihatdan

Tadqiqotning maqsadi ingliz tilini o'qitishda kasb-hunar texnikumi o'quvchilarining og'zaki muloqot ko'nikmalarini keys texnologiyasi yordamida rivojlantirishga qaratilgan metodik model, mashg'ulot bosqichlari, keys mezonlari va baholash ko'rsatkichlarini aniqlashtirishdan iborat.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqotda pedagogik va lingvodidaktik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, pedagogik modellashtrish hamda mezonli baholash usullaridan foydalanildi. Normativ-huquqiy hujjatlar, CEFR deskriptorlari va keys texnologiyasiga oid ilmiy manbalar qiyosiy o'rganildi.

Keys topshiriqlarini ishlab chiqishda o'quvchining kelajak kasbi bilan bog'liq ehtiyojlar asosiy mezon qibly olindi. Vaziyat tushunarli bo'lishi, muammo aniq ifodalanishi, bir nechta yechim imkoniyati maroon bo'lishi, muhokama davomida savol-javobga ehtiyoj tug'dirishi hamda maqsadli leksikadan foydalanishni talab qilishi inobatga olindi.

Metodik modelni amaliyotga joriy etishda mashg'ulotlar kichik guruhlarda (kotib, taqdimotchi, boshqaruvchi va rol ijrochilari) tashkil etiladi. O'qituvchi tayyor yechimni bermaydi, balki vaziyatni tushunish va muloqotni tartibga solish uchun yo'naltiruvchi savollar beradi. Og'zaki muloqotni baholashda faqat grammatik xatolarga tayanmay, mazmunni yetkazish, nutqning ravonligi, hamkor fikriga munosabat, kasbiy so'zlardan foydalanish va talaffuz kompleks hisobga olinadi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Tahlillar asosida kasb-hunar texnikumi o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan olti bosqichli metodik model ishlab chiqildi. Modelning markazida o'quvchini kasbiy mazmunga ega muammoli vaziyatga olib kirish, zarur leksik-grammatik tayanchlarni faollashtirish va yechimni ingliz tilida asoslash jarayoni turadi.

ahamiyatli bo'lsa, ingliz tilidagi muloqot amaliy zarurat sifatida qabul qilinadi.

Namunaviy keys ssenariysi: xorijiy mijoz texnik xizmatdan norozi bo'lib, muammoni bartaraf etishni talab qilmoqda. Guruh a'zolari mijoz, texnik mutaxassis, bo'lim boshlig'i rollarini bajarib, muammoni aniqlashtiradi, yechim variantlarini muhokama qiladi va qarorni asoslaydi.

Mashg'ulotda "Could you describe the problem?", "In my opinion...", "We suggest... because..." kabi nutqiy qoliplardan foydalaniladi.

Jadval 2. Keys asosidagi og'zaki muloqotni baholash mezonlari

Mezon	Baholash mazmuni	Maksimal ball	Kuzatuv indikatori
Mazmuniy moslik	Vaziyatni to'g'ri tushunish va yechimni mos ifodalash	5	Muammo va yechim o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik
Ravonlik	Ortiqcha pauzalarsiz tushunarli gapirish	5	Nutq sur'ati va fikrni yakunlay olish
Interaktivlik	Savol berish, hamkor fikriga munosabat bildirish	5	Muloqotni davom ettirish va kelishuvga erishish
Kasbiy leksika	Mavzuga oid terminlardan o'rinli foydalanish	5	Mutaxassislikka mos so'z va qoliplarning qo'llanishi
Grammatik aniqlik	Fikrni tushunishga xalaqit bermaydigan tuzilmalar	5	Asosiy zamonlar va gap tuzilishi
Talaffuz	So'zlarni yetarlicha aniq talaffuz qilish	5	Tinglovchi mazmunni qiyinchiliksiz anglay olishi
Jami	Kompleks baholash	30	Darajalarni aniqlash

Taklif etilayotgan baholash jadvali o'qituvchiga o'quvchining muloqot jarayonidagi real rivojlanishini ko'rish imkonini beradi. Grammatik xatolarga yo'l qo'yan o'quvchi vaziyatni to'g'ri tushuntirsa va muqobil yechimni asoslasi, uning kommunikativ yutug'i e'tirof etilib, keyingi bosqichda grammatika ustida ishlash uchun individual vazifa beriladi. Keys topshiriqlarini murakkablashtirish dastlab mikrokeys, keyinchalik qo'shimcha hujjatlar va jadvallar kiritish orqali izchil amalga oshiriladi.

Muhokama Keys texnologiyasi bir necha metodik afzalliklarga ega: u o'quvchining motivatsiyasini kelajak kasbi bilan bog'laydi; darsdagi faoliyat individual javobdan guruhli muzokaraga o'tadi; o'quvchi tayyor matnni takrorlamay, nutqiy strategiyani o'zi tanlaydi hamda o'z-o'zini baholash ko'nikmasi shakllanadi.

Sheredekina va hammualliflarning tadqiqotida keys texnologiyasi gapirish ko'nikmalarini professional vazifalarni hal qilish orqali takomillashtirishi ko'rsatilgan [6]. Winarto va Aprianti topshiriqqa asoslangan yondashuv o'quvchilarning gapirish ravonligi va muloqotdagi faolligini oshirishini qayd etgan [7]. Bonney keys asosidagi o'qitishning og'zaki muloqot ko'nikmalariga ijobiy ta'sirini isbotlagan [8]. Mazkur natijalar keys texnologiyasini professional ta'limda qo'llashning maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Biroq, keys texnologiyasi avtomatik ravishda yuqori natija bermaydi. O'qituvchi vaziyat murakkabligini o'quvchilarning til darajasiga moslashtirishi, zarur leksik tayanchni oldindan berishi va barcha o'quvchilar ishtirokini ta'minlashi zarur. Keyslar bankini yaratishda mutaxassislik fani o'qituvchilari bilan hamkorlik qilish, yo'riqnoma berish, nosozlik haqida xabar qilish va mijoz bilan kelishuvga erishish kabi kommunikativ vazifalarga e'tibor qaratish lozim.

Xulosa. Ingliz tilini kasb-hunar texnikumida o'qitishda og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim mazmunini o'quvchining kelajak kasbiy faoliyati bilan bog'lashni talab etadi. Keys texnologiyasi o'quvchini

muammoli vaziyatni tahlil qilish, savol berish, yechim taklif etish va yakuniy qarorni asoslashga jalb qiluvchi samarali vositadir.

Taklif etilgan olti bosqichli metodik model izchil tashkil etilganda o'quvchilarning gapirishga bo'lgan ishonchi, kasbiy leksikadan foydalanish faolligi va fikrni dalillash ko'nikmalari rivojlanadi. Keys texnologiyasini amaliyotga joriy etishda o'quvchilarning til darajasi, mutaxassislik yo'nalishi va dars vaqti hisobga olinishi zarur. Metodikani aniq ta'lim muassasasida tajriba-sinovdan o'tkazish va baholash rubrikasini amaliy ma'lumotlar asosida takomillashtirish keyingi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Ingliz tilini kasb-hunar texnikumida o'qitishda og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim mazmunini o'quvchining kelajak kasbiy faoliyati bilan bog'lashni talab etadi. Keys texnologiyasi mazkur vazifani hal qilishga xizmat qiluvchi samarali metodik vosita bo'lib, o'quvchini muammoli vaziyatni tahlil qilish, savol berish, fikr bildirish, yechim taklif etish, muzokara olib borish va yakuniy qarorni asoslashga jalb qiladi.

Taklif etilgan metodik model diagnostik-motivatsion tayyorgarlik, leksik-kommunikativ tayanch yaratish, keysni tahlil qilish, rolli muloqot va muzokara, yechimni taqdim etish hamda refleksiv baholash bosqichlaridan iborat. Ushbu bosqichlar izchil tashkil etilganda o'quvchilarning gapirishga bo'lgan ishonchi, kasbiy leksikadan foydalanish faolligi, hamkor bilan muloqot qilish va fikrni dalillash ko'nikmalari rivojlanadi.

Keys texnologiyasini amaliyotga joriy etishda o'quvchilarning til darajasi, texnikumdagi mutaxassislik yo'nalishi, mashg'ulot vaqti va mavjud didaktik vositalar hisobga olinishi zarur. Metodikani aniq ta'lim muassasasida tajriba-sinovdan o'tkazish, kirish va yakuniy diagnostika natijalarini qiyoslash hamda baholash rubrikasini amaliy ma'lumotlar asosida takomillashtirish keyingi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ-637-son, 23.09.2020. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori. 19.05.2021.

3. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment - Companion Volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.
4. Goh C.C.M., Burns A. Teaching Speaking: A Holistic Approach. Cambridge: Cambridge University Press, 2012. 301 p.
5. Newton J.M., Nation I.S.P. Teaching ESL/EFL Listening and Speaking. 2nd ed. New York: Routledge, 2021. 294 p.
6. Sheredekina O., Karpovich I., Voronova L., Krepkaiia T. Case Technology in Teaching Professional Foreign Communication to Law Students: Comparative Analysis of Distance and Face-to-Face Learning // Education Sciences. 2022. Vol. 12, No. 10. Art. 645. DOI: 10.3390/educsci12100645.
7. Winarto E.R., Aprianti F. The Realization of Task-Based Language Teaching to Foster Students' Speaking Fluency in Vocational School Context // English Review: Journal of English Education. 2022. Vol. 10, No. 2. P. 509-520. DOI: 10.25134/erjee.v10i2.6251.
8. Bonney K.M. Case Study Teaching Method Improves Student Performance and Perceptions of Learning Gains // Journal of Microbiology & Biology Education. 2015. Vol. 16, No. 1. P. 21-28. DOI: 10.1128/jmbe.v16i1.846.
9. Herreid C.F. Case Studies in Science: A Novel Method of Science Education // Journal of College Science Teaching. 1994. Vol. 23, No. 4. P. 221-229.
10. Nunan D. Task-Based Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2004. 240 p.